GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.38.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLMURODOVA OZODA SUVONKULOVNA

MASALA VA MASHQLAR YECHISH ORQALI BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Guliston – 2026

UDK 57:371.3

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of doctor of philosophy dissertation (PhD)

Xolmurodova Ozoda Suvonkulovna
Masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 3

Холмуродова Озода Сувонкуловна
Совершенствование методики развития креативных компетенций будущих учителей биологии посредством решения задач и упражнений ……..23

Kholmurodova Ozoda Suvonkulovna
Improving methods for developing creative competencies of future biology teachers through solving problems and exercises .....…….. 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……. 49

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.38.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLMURODOVA OZODA SUVONKULOVNA

MASALA VA MASHQLAR YECHISH ORQALI BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Guliston – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8833 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.Guldu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Azimov Ibragimjon Toshpo‘latovich** biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy oponnentlar:	**Raximov Atanazar Karimovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	Mahmudov Yusup G‘aniyevich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot	**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.B.38.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 11-noyabr kuni soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25; faks: (+99867) 225-39-25; E-mail: glsuinfo.@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 38.26 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 29-oktabr kuni tarqatildi.
(2026 - yil 29- oktabrdagi (№2 raqamli reyestr bayonnomasi)

A.P.Pazilov
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

F.P.Gaibnazarova
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.n. (PhD), dotsent

M.T.Ergasheva
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o’rinbosari, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta‘lim tizimidagi amalga oshirilayotgan tub islohotlar va mehnat bozorida sog‘lom raqobat muhitining shakllanishi sharoitida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash borasida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq qilish bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish amaliyoti keng qo‘llanmoqda. Xususan, ta’lim jarayonida 4K (kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlash) kompetensiyalarini shakllantirish ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishi ekani ta’kidlangan. Jumladan, AQSh (Harvard University, University of California), Yaponiya (University of Tokyo) Buyuk Britaniya (Kasbiy maslahat tashkilotlari), Fransiya (Ta’lim va kasb bo‘yicha Milliy axborotlar byurosi) kabi rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik va metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish dolzarb masala ekani e’tirof etilgan.

Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo‘lajak biologiya fani mutaxassislari fanlarini kreativ yondashuv asosida shakllantirish, kreativlik layoqatini takomillashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda raqamli ta’lim, “STEAM-ta‘lim” yondashuvi hamda “Art-pedagogika” “Art-terapiya” kabi innovatsion texnologiyalarini bevosita ta’lim amaliyotiga keng miqyosda tatbiq etish masalalari ustida uzoq yillik ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, biologik ta’lim jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, biologik kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-metodik tizimini rivojlantirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimiz pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish, biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga tayangan holda mutlaqo yangicha metodikalarni joriy etish, modernizatsiya ishlarini amalga oshirishga bo‘lgan e’tibor kun sayin ortib bormoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Xalq ta’limi sohasiga innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini tatbiq qilish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, muqobil yondashuvlar va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy mazmundagi ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini, integratsiyalashgan funksional modelini, o‘quv topshiriqlarini tizimlashtirish va metodik ta’minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF 5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. // https://lex.uz/ru/ docs/-4312785.

2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion yondashuvlar asosida kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha N.N.Azizxodjayeva, A.A.Abduqodirov, B.S.Abdullayeva, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O‘.Q.Tolipov, B.X.Xodjayev, G.N.Ibragimova, M.Yu.Yakubova, H.U.Dexqonov, K.I.Nuraliyeva, A.Radjabov kabi soha olimlari ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan. Biologiya va uni o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy aspektlari, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlari A.T.G‘ofurov, O.Mavlonov, J.O.Tolipova, G.A.Shaxmurova, A.Zikryaev, K.A.Saparov A.K.Raximov, G.S.Ergasheva, M.T.Ergasheva, I.T.Azimov, S.S.Fayzyllaev U.E.Raxmatov, M.T.Umaraliyeva, M.A.Kuychiyeva, S.Z.Jumayev, S.I. Zayniyev, N.R.Achilova va boshq. tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish, kreativlik qobiliyatini psixologik va pedagogik asoslari, o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishning metodik xususiyatlari, nostandart tafakkur yuritish muammolari N.V.Kuzmina, E.F.Zeyer, R.X.Tugeshev, I.A.Zimnyaya, V.P.Bespalko, O.E.Lebedev, I.Ya.Lerner, A.K.Markova, A.V.Xutorskoy, Ye.N.Ponomareva, I.V.Grishina, T.A.Barisheva, Yu.A.Jigalov, S.S.Molis, S.A.Molis, S.V.Dedyuxin, K.V.Sherstneva, D.B.Elkonin va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Xorijlik olimlar o‘z tadqiqotchilarida H.Meyer, Ye.P.Torrens, A.H.Maslou, E.Kose, M.Berkman va E.Plutzer, B.Bishop va S.Anderson, I.F.Gerbart, J.Miller va R.Toth, M.Clores, T. F. Bashina, R.W.White kabilar uzluksiz ta’lim jarayonida kreativlik, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash masalalarini maxsus o‘rgangan.

Tahlilga ko‘ra, ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak

biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi zamon talablariga mos darajada maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini masala va mashqlar yechish orqali rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning o‘quv maqsadlari bilan integratsiyalashgan funksional modelini takomillashtirish;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda integratsiyalashgan o‘quv topshiriqlarini tizimlashtirish va metodik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti va Qo‘qon davlat universiteti bilogiya ta’lim yo‘nalishining 249 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda muammoga oid psixologik, pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish; Malaka talablari, namunaviy o‘quv dasturi, darslik, o‘quv qo‘llanmalarni qiyosiy o‘rganish; pedagogik kuzatish, umumlashtirish, ijtimoiy metodlar (savol-javob, suhbat, anketa, test), biologik masala va mashqlar yechish; pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik tahlil qayta ishlash metodlaridan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari STEAM va xalqaro baholash dasturlariga mos modernizatsiyalashni fanlararo muammoli-ijodiy fikrlash va multidisiplinar bilimlarni mehnat bozori talablariga muvofiqligini intensiv ta’minlash, innovatsion o‘zgaruvchan muhitining kreativligini amaliy vaziyatlarga yo‘naltirib loyihalash refleksiv pedagogik tahlil asosida aniqlangan;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli konseptual maqsadlarni hayotiy rekonstruksiyalash, kreativ innovatsion yechim variantlarini taqqoslash, kreativ refleksiya kontekstida raqamli simulatsion muhitini ijodiy fikrlash va o‘zini o‘zi tahlil etishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi kasbiy kontekstdagi masala va mashqlar mazmuniga biologik jarayonlarni modellashtirishning integrativ va interditsiplinar elementlarini kiritish, ta’lim jarayoniga integrativ, loyihalashgan va ochiq turdagi masalalarni vizuallashtirish va texnologik-diversifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi kasbiy bilimlar integratsiyasini nostandart va ijodiy-hayotiy vaziyatlarga talqin etish, innovatsion yechimlarni raqamli muhitda tarqatish va transformatsiyalash, gnoseologik mazmunda refleksiv baholashni kuchaytirish asosida oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma chop etilgan;

“Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanma chop etilgan;

talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mualliflik biologik masala va mashqlar to‘plami ishlab chiqilgan;

masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘yilgan muammoni o‘rganishda psixologik, pedagogik va metodik yondashuvlarga hamda kreativ kompetensiya-larni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari, metodist-olimlari, shuningdek, amaliyotchilar ishlariga asoslanilganligi; foydalanilgan yondashuv va interfaol texnologiyalar, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot vazifalariga mos holda, o‘zaro adekvat bo‘lgan nazariyalarning o‘rganilganligi, tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiyadan masala va mashqlar yechish mazmuni, unda o‘quv mashg‘ulotlarini kreativ yondashuv asosida tashkil etish metodikasining takomillashgani, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvining o‘quv maqsadlari bilan integratsiyalashgan funksional modeli ishlab chiqilgani, biologiya fanini o‘qitish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan didaktik va metodik ta’minot ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati biologiya fanini o‘qitish jarayonini kreativ yondashuv ustuvorligida tashkil etishning didaktik va metodik ta’minoti sifatida “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” hamda “Biologiyadan

masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanmalardan uzluksiz ta’lim tizimida biologiya fanini o‘qitish jarayonida foydalanilayotgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini masala va mashqlar yechish orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini biologik masala va mashqlarning turlarini kreativlikning darajalari bo‘yicha tasniflash orqali o‘qitish jarayoni individuallashtirish va differensiyalash jarayonlarining “potensiallikdan dolzarblikka ko‘chirib o‘tkazish” tamoyili bilan identivligini bevosita hisobga olish mantiqiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid takliflar “Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4/3.1-sonli qarori asosida berilgan 2024-581U-491 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish uchun sharoit yaratilgan.

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini “freyer” va “4K” modeliga muvofiq tarzda imitatsion, muammoli, jamoaviy ijodiy ish, kooperativ, tanqidiy, loyihaviy o‘qitishning strategiyalarining modifikatsion variantlarini muammoli-masalali yondashuvning metodik imkoniyatlari amplikatsiyasi bo‘yicha maqsadli loyihalash asosida takomillashtirishga doir takliflar “Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 30-maydagi 10/4.1-sonli qarori asosida berilgan 2024/214-U-294 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talaba-larning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning funksional modelining amaliy-texnologik komponentini kreativ darslarni tashkil etishning motivatsion, mazmunli, mantiqiy fikrlash, kompyuterli ko‘makchi tizim, refleksiya bosqichlariga mos biologik masala va mashqlar kompleksini TRIZ-pedagogikasining innovatsion jihatlari bilan integrativlik darajasi maqbulligiga erishish bo‘yicha strukturalash orqali takomillashtirishga oid takliflar “Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universitetining Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4/3.1-sonli qarori asosida berilgan 2024-581U-491 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak biologia fani

o‘qituvchilarining biologiya faniga oid kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va baholash mezonlarini aniqlash imkoniyati kengaytirilgan;

bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta’minoti veb-kvestli yondashuvga asoslangan kreativ masala va mashqlarni “meta-kasbiy” sifatlarni shakllantirish bo‘yicha shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning kavazikasbiy faoliyat bilan uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan didaktik algoritmini ishlab chiqish orqali takomillashtirishga oid takliflar “Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Odam va uning salomatligi)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son Qarori asosida moliyaviy va akademik mustaqillik berilgan Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 30-maydagi 10/4.1-sonli qarori asosida berilgan 2024/214-U-294 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarning masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 137 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslari, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradigan innovatsion yondashuvlar didaktik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Mamlakatimiz ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kreativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda. Biroq bu muammoning turli jihatlari va uning aspektlariga bugungi kunda olimlarning qiziqishlari kundan

kun ortib bormoqda. Bu holat ta’lim jarayonidagi globallashuv sharoitida alohida ahamiyatga egaligi va uning dolzarbligidan dalolatdir.

Tadqiqot doirasida pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlillariga ko‘ra, nazariy manbalar mazmuni bilan bevosita tanishish, oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv-me’yoriy hujjatlarini o‘rganish natijasida aniqlangan dalillar asosida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonida bir qator, xususan: talabalarning yetuk mutaxassis ma’lumoti darajasi bilan DTS, MTning modernizatsiyalangan mazmuni va hajmiga qo‘yilayotgan me’yoriy talablar hamda uning individual imkoniyatlari o‘rtasida; OTMlarning olib borayotgan pedagogik uklondagi faoliyati bilan talabani bo‘lajak o‘qituvchi maqomida tayyorlash jarayonlarini rivojlantirish mexanizmlari va ishlab chiqilgan qonuniyatlari o‘rtasida; OTMlarda bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilari kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayonida foydalanilayotgan metodlar o‘rtasida; psixologik, pedagogik fanlarning bo‘lajak biologiya o‘qituvchisi kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish davomida majburiy va tanlov fanlari bilan interatsiyasiyasi yetarli darajada qo‘llanmayotgani o‘rtasida; OTMdagi namunaviy o‘quv dasturlarining mazmuni dunyoning rivojlangan Top-300 talikdan o‘rin olgan OTMlari o‘quv dasturlari va uning umumiy o‘rta ta’lim maktablari MO‘D dasturi hamda mazmuni o‘rtasida; o‘quvchilariga mo‘ljallangan darsliklarning mazmuni va undagi o‘quv topshiriqlarining xalqaro tadqiqot dasturlari doirasidagi kreativ fikrlashga xizmat qiladigan topshiriqlarning yetarlicha emasligi o‘rtasidagi kabi qarama-qarshiliklar, mulohazali jihatlar aniqlandi.


Mazkur bobda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “kreativlik”, “kreativ kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik” kabi tushunchalalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot olib borgan K.Sherstneva, H.Meyer, A.Xutorskoy, E.Zeyer, I.Gerbart, A.Spirkin, E.Torrens, Sternberg, A.Maslow, T.Edison, A.Markova kabi MDH va uzoq xorij olimlari bilan bir qatorda J.Tolipova, N.Muslimov, Sh.Sharipov, U.Raxmatov, G.Ibragimova, M.Kuychiyeva, N.Achilova, M.Yakubova, H.Dexqonov, K.Nuraliyeva kabi mamlakatimiz tadqiqotchilarining qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

Kreativlik atamasi fan tarixida dastlab o‘tgan asrning 60-yillariga kelib, Angliya va Amerika psixologiyasida paydo bo‘ldi. “Kreativlik” tushunchasi shaxsning muayyan faoliyati davomida yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar vujudga keltirish qobiliyati, sifatini anglatadi. “Kreativlik” tushunchasi lotinchadan olingan bo‘lib, “*Create*” - “*yartish*, *barpo etish*” degan ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur tushuncha inglizcha talqin qilinganda esa “*Creative*” - “*yaratuvchanlik*”, “*ijodkorlik*” ma’nolarida qo‘llanadi va shaxsning yangidan-yangi g‘oyalar yaratishga tayyorligini ifodalaydi.

Amerikalik psixolog E.P.Torrens tomonidan kreativlikning operatsion ta’rifi ilgari surilgan. E.P.Torrensning ta’kidlashicha, kreativlik - shaxsning hayoti davomida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan muammolarga nisbatan undagi sezgirlikni yuqori darajaga chiqish holati. Kreativlik – bu shaxsning mavjud bilimlari kutilmagan vaziyatlarga nisbatan sezgirligi va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashtirishidir.

Sternbergning fikricha, kreativlik shaxsni bir necha qobiliyati bilan bog‘liq. Sternberg va uning kasbdoshlari kreativlikning 5 komponentini ishlab chiqqan (1-rasmga qarang).

“Kreativlik” tushunchasini T.Edison g‘ayriixtiyoriy jarayon sifatida izohlaydi. Shaxsning kutilmagan vaziyatlarda to‘satdan yechim tiopsh jarayoni kreativlik jihatlari bilan tenglashtiriladi.



1-rasm. Kraetuvlikning besh komponenti (Sternberg bo‘yicha)

Bizning fikrimizcha, kreativlik – bu shaxsning hayoti davomida shakllangan ma’naviyati, madaniyati va intelektual salohiyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan unikal qadriyatlar yarata oladigan, murakkab masalalarni ijobiy yo‘l bilan bartaraf eta oladigan yoki noodatiy sharoitlarda nostandart holda ijobiy yechimlar topadigan, adaptiv tarzda muhitga moslashuvchan va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, betakror qobiliyatidir.


Olib borgan kuzatishlarimiz va ilmiy tadqiqot ishlari mazmunini tahlil qilish asosidagi o‘rganish natijalarini analiz va sintez hamda umumlashtirish, masalalar yechish va mashqlar bajarish orqali bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadga muvofiq: tabiatdagi voqea va hodisalarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash; tirik organizmlarda ro‘y beradigan biologik jarayonlar mohiyatini o‘rganish; tirik organizmlardagi biologik jarayonlar, hodisalar, nazariya va qonuniyatlar o‘rtasidagi sabab-oqibatlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rnatish; tirik organizmlarning o‘zaro bog‘liqligi va biologik tizimlar o‘rtasida vujudga keladigan yangi aloqalarni aniqlash va tahlil qilish; har bir jarayon va hodisalarni mazmuni va natijasi shubha ostiga olish orqali uning rivojlanish tizimini qayta tahlillar asosida ko‘rib chiqish; tirik organizmlarda ro‘y beradigan voqea va hodisalarni kelgusidagi o‘zgarishlarini modellashtirish asosida bashorat qilish; tirik tabiat obyektning o‘zaro bir biriga qarama-qarshi bo‘lgan belgilarini aniqlashtirish va shakllantirish; tirik organizm-larda ro‘y beradigan voqea va hodisalarni mazmunan anglab yetish va ularning mexanizmlarini tasavvur qilish; tirik organizmlarda ro‘y beradigan voqea va hodisalarni noodatiy vaziyatlarda to‘g‘ri va xolisona baholash. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi kognitiv, motivatsion, faoliyatli, refleksiv (baholash) komponentlar, ularning mazmuni ishlab

chiqildi, mazkur jarayonga doir tamoyillar yoritildi, XXI asr ko‘nikmalari va mazmuni aniqlashtirilgan holda bayon etilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslari”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda foydalaniladigan masala va mashqlarning turlari va tavsifi, masalalar yechish metodikasi yoritilgan.

Bugungi raqamli transformatsiya muhitida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida masala va mashqlardan o‘z o‘rnida foydalanish alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Masala bu - o‘rtaga qo‘yilgan muammoni yechimini topishda o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirgan bilimlarni qo‘llash orqali ma’lum natijaga erishishdir. Mashq esa - o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Bu bobda biologik masala va mashqlarning turlari, darajalari, tasnifi borasidagi tadqiqotchilar qiyosiy jihatidan tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan masala va mashqlarni didaktik maqsadiga ko‘ra quyidagi turlari: ta’lim oluvchilarning oldin o‘zlashtirilgan bilimlarni tizimga solvchi masala va mashqlar; oldin egallangan BKlarga asoslanib, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan masala va mashqlar;




2-rasm. Talabalarning kreativ kompetensiyalari rivojlanishiga imkon beradigan masala va mashqlarning mazmuniga ko‘ra turlari

egallangan BKlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga tatbiq etadigan masala va mashqlar; egallangan BKlarni nazorat qilish va baholash jarayoniga tatbiq qilindigan masala va mashqlar; oldin o‘zlashtirgan obyekt bilan o‘zlashtirilayotgan obyektni taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga mo‘ljallangan masala va mashqlar tasniflandi. Shuningdek, bo‘lajak biologya o‘qituvchilarining kreativ

kompetensiyalarni rivojlanishiga imkon beradigan masala va mashqlarning mazmuniga ko‘ra turlari tasniflandi (2-rasmga qarang)


Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida integrativ bilimlarni taqozo qiladigan masala va mashqlarni o‘ziga xos o‘ringa egaligi turli biologik masala va mashqlar asosida yoritib berilgan. Test topshiriqlari muhim mashqlar turkumiga mansub sanalib, qiyinlik darajasi va bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko‘ra bugungi kunda mavjud testlarn to‘rtta: reproduktiv; produktiv; qisman-izlanishli; kreativ darajalarga ajratiladi.

Biologiyadan masala va mashqlar yechish orqali bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida quyidagi aqliy operatsiyalar adekvat tarzda amalga oshirilish algoritmi ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi aqliy operatsiyalar

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida o‘quv fani mazmuniga oid tanlangan masalalarga quyidagi didaktik talablari asosida ishlab chiqildi: tanlangan biologik masala va mashqlar mazmuni didaktik hamda metodik talablarga javob berishi kerak; tanlangan biologik masala va mashqlar mazmuni sodda, qisqa tugallangan matnda ifodalangan bo‘lishi zarur; tanlangan masalalar mazmuni va undagi faktlar haqqoniy bo‘lishi lozim; tanlangan masalalar mazmunan aniq hamda tushunarli bo‘lishi lozim. Shuningdek, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilari biologik masalalar yechimi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlash uchun quyidagi mezonlarga ustuvorlik berilishi lozim: tanlab olingan masalaning optimal yechimining mavjudligi; turli masalalar bo‘yicha ballar miqdori (soni) aniq belgilanishi; biologik masalalarni yechishdagi me’yoriy davom etish muddati; umumiy ballar miqdori tanlangan mezonlar asosida bo‘lishi lozim.



4-rasm. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini masala va mashqlar yechish orqali rivojlantirishning funksional modeli


Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini loyihalash jarayonida dastavval ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda qolaversa talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri tashkil etish lozim. Mazkur jarayonni to‘g‘ri tashkil etish uchun pedagogik funksional model ishlab chiqildi (4-rasmga qarang).

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida “Freyer modeli”, “Muammoli vaziyat” “4K tamoili”, “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, “Assesment”, “Charxpalak”, “Venn diagrammasi”, Klaster” kabi innovatsion texnologiya va interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etishi mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda tatbiq etildi.

Tadqiqotlarimiz natijasida, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining masala va mashlar yechish orqali kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradigan usullari ishlab chiqildi va pedagogik amaliyotga joriy qilindi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan masalalar va mashqlardan namunalar keltirish maqsadga muvofiq.

1-masala. Sportchining tana massasi 70 kg bo‘lib, bir kunlik iste’mol qilingan uglevoddan hosil bo‘lgan jami energiya 2050 kkalga teng. Ozuqadagi kunlik oqsil va yog‘ miqdori teng bo‘lib, uglevod miqdori ulardan 2,5 marta ko‘p. Ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflangan energiya miqdorini kkal da hisoblang.


2-masala. Quyidagi diagrammada DNK fragmentining birinchi zanjiridagi nukleotidlar soni ifodalangan. Ushbu fragmentning ikkinchi zanjiridagi nukleotidlar soni to‘g‘ri berilgan javobni aniqlash orqali masalani javobini aniqlang.




A) adenin - 180; guanin 120; timin - 100; sitozin - 160:
B) adenin - 100; guanin 160; timin - 180; sitozin - 120:
C) adenin - 180; guanin 100; timin - 120; sitozin - 160:
D) adenin - 100; guanin 180; timin - 120; sitozin - 160.

3-masala. Agar krossingover chastotasi C va E genlari orasida 10%, C va A genlari orasida 1%, A va E genlari orasida 9%, B va E genlari orasida 6%, A va B genlari orasida 3%, B va D genlari orasida 2%, E va D genlari orasida 4% ekani ma’lum bo‘lsa, u holda A, B, C, D, E genlarini saqlovchi xromosomaning genetik xaritasini tuzing.

1-mashq. Baliqlarning yuragi ikki kamerali bo‘lib, bitta qon aylanish doirasidan iborat. Quyida berilgan qaysi javobda baliqlarning qon aylanish doirasi tarkibida qon bosimining o‘zgarishi to‘g‘ri tasvirlangan? Bu yerda, a - yurak bo‘lmasi; b - yurak qorinchasi; p - qonning bosimi.




2-mashq. Qaysi javobda yuksak o‘simliklardagi poliploidiya hodisasi to‘g‘ri ifodalangan? (x - xromosomalar soni, y - mahsuldorlik)



3-mashq. Quyidagi diagrammada 3 ta qo‘shni o‘simlik hujayralarining suv potensiali ko‘rsatilgan (toza suvdagi suv potensiali 0 ga teng).



Yuqoridagi rasmdan osmos hodisasiga asosan hujayralararo suv harakatini aniqlang va quyidagi javoblarning qaysi biri to‘g‘ri ekanini belgilang.



A) 1; B) 3; C) 2; D) 4

Yuqorida berilgan masala va mashqlar biologiya darsliklaridan o‘rin olgan barcha mavzulardan tuzish mumkin. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida *4K tamoyili* (yondashuvi) muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda kommunikativlik – insonlar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro muloqat jarayoniga kirishish, ishlab chiqilgan g‘oya va bilimlar almashinuvini, kollaboratsiya – o‘zaro hamkorlikda ishlash, kritik fikrlash – ma’lumotlarni turli jihatlari bo‘yicha tahlil qilish va olingan ma’lumotlarga tayangan holda tegishlicha xulosalar chiqarish va jarayonlarni turli aspektlari jihatidan holis baholash orqali uzviy fikrlash, kreativlik – jamiyat va o‘zining hayotida duch kelayotgan mavjud muammolarning innovatsion yechimlari yuzasidan to‘g‘ri va aniq bo‘lgan qaror qabul qilish kompetensiyasi rivojlanishiga zamin yaratishi aniq misollar asosida dalillandi.

